

Prezident mahalla faollari bilan suhbatlashdi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi «Toshkent» mahalla fuqarolar yig'inida bo'ldi.

Bu yerda 4 mingdan ortiq aholi yashaydi. O'ndan ortiq do'kon, maishiy xizmat shoxobchalari, oshxona va qandolat sexida xotin-qizlar va yoshlар ish bilan band. Ming o'rинli maktab, musiqa va san'at maktabi, 600 o'rинli bolalar bog'chasi bor. Mahalla guzarida tashkil etilgan o'quv maskanida shu yerlik ishsiz ayollarga tikuvchilik sirlari o'rgatilyapti.

Ma'lumki, mamlakatimizda mahallabay ishlash bo'yicha yangi tizim joriy etildi. Shu asosida, Jomboy tumanidagi 38 ta mahallaga ham hokim yordamchilari va yoshlар yetakchilari tayinlandi. Prezidentimiz ular bilan suhbatlashdi.

Hokim yordamchilari va yoshlар yetakchilari o'zлari mas'ul mahalladagi o'rganish natijalari, muammolarni hal etish bo'yicha rejalarini so'zlab berdi. Yordamga muhtoj oilalar a'zolari kasb-hunar va tadbirdorlikka o'qitilishi, o'zini o'zi band qilish uchun imtiyozli kredit va subsidiya berilishi, dehqon xo'jaligi uchun yer maydonlari ajratilishi aytildi.

Bu yil Jomboyda mahallabay tizim orqali tadbirdorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash uchun 62 milliard so'm imtiyozli kredit va 4,5 milliard so'm subsidiya ajratish ko'zda tutilgan.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sportga jalb etish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ham muhimligi ta'kidlandi.

